



QONUNCHILIKDAGI KOLLIZIYALARNI HAL ETISHDA NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI TIZIMLASHTIRISH MUAMMOLARI

Dauletmuratov Timur Dauletmuratovich

O'zbekiston Respublikasi IIVga qarashli Nukus "Temurbeklar maktabi" litseyi huquqshunoslik fani o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14228865>

Annotatsiya: Ushbu maqolada qonunchilikdagi kolliziyalar bilan bog'liq muammolarni o'rganish va tahlil qilish hamda natijalarni mamlakatimiz ijtimoiy hayotiga tatbiq etish bugungi kunda huquqshunoslik fanlari oldida turgan dolzarb masalalardan biri ekanligi belgilab berilgan. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirishning ayrim turlariga to'xtalib o'tilgan va ularning kolliziyalarni oldini olishdagi ahamiyati yoritib berilgan,

Kalit so'zlar: kolliziya, normativ-huquqiy hujjatlar, konsolidatsiya, kodifikatsiya, inkorporatsiya, qonun ijodkorligi

Ma'lumki, huquq ijodkori muayyan normativ-huquqiy hujjatlarni yaratish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida mavjud huquqiy bazani atroflicha tahlil etishga va bunda muayyan takrorlashlarga, nomuvofiqlilik va ziddiyatlarga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi. Lekin, bu boradagi faoliyat yuqoridagi jihatlarni qanchalik e'tiborga olgan holda amalga oshirilmasin, bunda qonunchilikda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kolliziyalarning oldini olish va hal etishga to'laligicha erishib bo'lmaydi. Shu jihatdan olganda, huquqdagi kolliziyalarni hal etish mexanizmining muhim usullaridan hisoblangan qonunchilikni tizimlashtirish va uyg'unlashtirish bu boradagi muammolarni hal etishda alohida ahamiyat kasb etishini qayd etish joiz.

Qonunchilikni tizimlashtirish va uyg'unlashtirish bilan bog'liq masalalar mamlakatimiz va xorijlik huquqshunos olimlar tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, ularda mazkur usullarning qonunchilikdagi kolliziyalarni hal etishdagi o'rni va ahamiyati bilan bog'liq jihatlarga batafsil to'xtalib o'tilmagan.

Ta'kidlash joizki, ijodkorlikning boshqa turlari kabi huquq ijodkorligi ham jamiyatda kechayotgan jarayonlarga mos holda muntazam rivojlanib boradi. Zero, huquq normalari bilan tartibga solinishi lozim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi huquq ijodkoridan doimiy ravishda faoliyat yuritishni, yangidan-yangi normativ-huquqiy hujjatlar-ni yaratish, mavjud hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida, normativ-huquqiy hujjatlar doirasining muntazam ravishda o'zgarib





turishiga hamda aksariyat hollarda ularning hajm jihatdan kengayib borishiga hamda ular o'rtasida muayyan ziddiyatlarni kelib chiqishiga olib keladi. Ushbu muammolarni hal etishda qonunchilikni tizimlashtirish taqozo etiladi.

Bu borada huquqshunos olim U.X.Muhamedov haqli ravishda e'tirof etganidek, "qonun hujjatlari miqdorining son jihatdan juda ko'payib ketishi, qonunchilik hujjatlarida o'zaro ziddiyatlar yuzaga kelishi, ularning bir-birini takrorlashi, qonun ijodkorligi tartib-taomillarining buzilishi holatlarida normativ-huquqiy hujjatlarni hisobga olishning ahamiyati yaqqol ko'rinadi".

Qonunchilikni tizimlashtirish ularni tartibga solish va takomillashtirish yuzasidan amalga oshiriladigan faoliyat bo'lib, u ushbu hujjatlarni belgilangan va o'zaro ichki bog'langan tizim xoliga keltirishni nazarda tutadi. Shu o'rinda, huquqshunoslik fanlarida qonunchilikni tizimlashtirishdan ko'zlangan maqsad hamda uning qonunchilikdagi ziddiyatlarni hal etishdagi ahamiyati yuzasidan turli xil yondashuvlar mavjud ekanligini qayd etish joiz.

Xususan, huquqshunos olimlar M.K.Najimov va Sh.A.Saydullaevlarning fikricha, normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: qonunchilikni rivojlantirish va yanada takomillashtirish; normativ hujjatlarni to'g'ri anglash va qo'llash; zarur bo'lgan normativ hujjatni (normani) topishni yengillashtirish; joriy qonunchilikdagi ziddiyatlar, noaniqliklar, takrorlanishlar, bo'shliqlarni bartaraf etish; huquqiy munosabat subyektlarining huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish va boshqalarda.

Qonunchilikni tizimlashtirishdan ko'zlangan maqsad yuzasidan yuqorida keltirib o'tilgan fikr-mulohazalarni e'tirof etgan holda, uning huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, qonunchilikni eskirgan aktlar va o'zaro qarama-qarshi normalardan halos etish, normativ hujjatlardan foydalanishni yengillashtirish va soddalashtirish, jamiyatning huquqiy madaniyati va huquqiy tarbiyasi darajasini oshirishda katta ahamiyatga ega ekanligini qayd etib o'tish joiz. Ayniqsa, qonunchilikni tizimlashtirishning kodekslashtirish va konsolidatsiya usullaridan oqilona foydalanish normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi kolliziyalarni hal etishda muhim o'rin tutadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, huquqiy tizimning rivojlanishi davomida muayyan muddat o'tganidan keyin tartibga solish predmeti bir bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning hajmi oshadi. Bu esa, mazkur hujjatlarning qoidalarini takrorlashi bilan birga, ularda kolliziyalarning yuzaga kelishiga ham olib keladi. Bunday holatlarda normativ-huquqiy hujjatlarni konsolidatsiya qilish orqali ulardagi ziddiyatlarga barham berish mumkin.





Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirishning kodifikatsiya shakli ham qonunchilikdagi kolliziyalarni hal etishda muhim o'rin tutadi.

Kodifikatsiya - bu normativ aktlarni ularning mazmuniga o'zgartirish kiritish orqali mantiqiy asosda yagona normativ aktga tizimlashtirishdir. Kodifikatsiya qilish jarayonida eskirgan normalar tugatiladi, butun huquq tizimidagi ziddiyatlar bartaraf etiladi, huquqiy bo'shliqlar to'ldiriladi.

Mamlakatimiz mustaqilligidan buyon ijtimoiy voqelikning turli sohalariga oid normativ-huquqiy hujjatlarni obyektiv shart-sharoitlar yuzaga kelishi barobarida kodifikatsiya qilish bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda. U yoki bu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni kodifikatsiya qilishning zarurati yuzaga kelganligini anglashda qonun ijodkoriga yuridik fan tomonidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar qo'l keladi. Shu jihatdan olganda, ilmiy jamoatchilik tomonidan muayyan sohani kodifikatsiyalash yuzasidan turli baxs munozaralar kelib chiqishi tabiiy xoldir.

Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirishning inkorporatsiya usuli ham mavjud bo'lib, tizimlashtirishning mazkur shaklida yangi normativ-huquqiy hujjat yaratilmaydi. Lekin, ushbu usul orqali qonunchilikdagi kolliziyalarni aniqlash mumkin bo'ladi, ya'ni muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlarni tematik asosda tizimlashtirish jarayonida ulardagi takrorlashlar va ziddiyatli holatlar aniqlanadi. Biroq, bunda qonunchilikdagi kolliziyalarni hal etib bo'lmaydi. Bunga faqat tizimlashtirishning kodifikatsiya va konsolidatsiya usullari orqali erishish mumkin.

Dunyodagi aksariyat davlatlarda qonun ijodkorlik faoliyati orqali huquq normalari o'rnatiladi, umuman pozitiv huquq yaratiladi. Tabiiyki, pozitiv huquq tizimi amal qilgan joyda huquqiy tartibga solishda muayyan ziddiyatlar va bo'shliqlar mavjud bo'lishi mumkin. Chunki, ijtimoiy munosabatlar birlamchi, huquqiy tartibga solish esa ikkilamchi bo'lib, qonunchilik ijtimoiy hayot ortidan rivojlanib boradi va uni zarurat doirasida yuridik rasmiylashtiradi. Qonunchilikda ziddiyatlarning mavjud bo'lishi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish manfaatlariga salbiy ta'sir etadi. Ushbu muammo nafaqat yuridik, balki ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, huquq subyektlarining barchasiga birdek daxldordir. Uni bartaraf etish masalasi qonun chiqaruvchi hokimiyat organiga ham, huquqni qo'llovchi subyektlarga ham bab-baravar tegishli.

Qonun chiqaruvchi organ doimo huquqiy tartibga solish doirasini aniqlashga, mustahkamlashga va rasmiylashtirishga intilib, qonunchilik huquqiy tartibga solish ehtiyojini qondirishga qanchalik javob berishini yoki unda





ziddiyat borligini aniqlab, darxol tegishli normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish choralarini ko'radi. Qonun chiqaruvchi organ, huquq ijod-korligi bilan shug'ullanadigan barcha subyektlar huquqiy tar-tibga solishda qanchalik omilkorlik bilan ish tutib mukammallikka erishsa, huquqiy hayot shunchalik barqaror va mo'tadil bo'ladi, ijtimoiy munosabatlar tizimida izchil batartiblikka erishiladi. Buning uchun ular huquqiy sohada imkoni boricha ziddiyatlar kam bo'lishiga intilishlari lozim. Qonunchilikda ziddiyatlar qanchalik kam bo'lsa, huquq shunchalik mukammal, sifatli va samarali, qonuniylik esa mustahkam bo'ladi.

Milliy qonunchiligimizni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va xalqaro huquq normalari hamda umum tan olingan tamoyillar asosida rivojlanib kelayotganligini e'tirof etish bilan birga, uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning xususiyatlariga hamohang tarzda takomillashtirib borish va yangi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish taqozo etilayotganligini ham qayd etish lozim. Shu o'rinda, huquqshunos olim Sh.X.Fayziyevning quyidagi fikrlarini kelti-rib o'tish joiz: "jamiyatimiz taraqqiy etgan sari uning huquqiy asoslarini mustahkamlash, mavjud qonun hujjatlarini tanqidiy nuqtai-nazardan ko'rib chiqish, ularga bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiri-tish, zamon talablariga javob bermaydigan eski qonunlarni bekor qilish va yangilarini yaratish, shuningdek, qonun hujjatlarining sifatini oshirishga bo'lgan obyektiv ehtiyoj tobora ortib boraveradi".

Yuqoridagilardan ham ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda qonunchilikdagi kolliziyalarni oldini olish va hal etish mexanizmlarining huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qonunchilikdagi kolliziyalarni oldini olish va hal etishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim o'rin tutadi. Qonunchilikdagi kolliziyalarni oldini olish va hal etish-ning konstitutsiyaviy asoslari bilan bir qatorda, normativ-huquqiy hujjatlarda ham muayyan qoidalar belgilab qo'yilgan. Ularning mazmuni batafsil tahlil qilish mazkur risolaning hajmi va imkoniyatlaridan ancha keng ekanligini e'tiborga olib bu boradagi huquqiy asoslarni takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Zero, keyingi yillarda amalga oshirilayotgan davlat va huquq sohasidagi muhim islohotlar, ayniqsa yaqin vaqtlarda bo'lib o'tgan parlament islohotlari huquq yaratish, jumladan, qonun ijodkorligi jarayoniga ham o'zgartirishlar kiritdi. Shu munosabat bilan, ular ham qonun chiqarish jarayonining huquqiy asoslarida o'zining tegishli ifodasini topishi kerak. Mamlakatimiz ilmiy yuridik adabiyotida qonun ijodkorligi jarayonining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zarurligi va uning yo'nalishlari haqida





e'tirofga molik fikrlar mavjud. Xususan, X.Odilqoriyev va U.Muhamedovlar qonun ijodkorligi jarayonidagi barcha qonun hujjatlari bir tizimga solinib, saralanib, qayta ishlanib Qonunchilik jarayoni kodeksini qabul qilish taklifini ilgari surganlar.

Binobarin, mamlakatimizda qonunchilikdagi kolliziya-larni hal etishning huquqiy asoslari va mexanizmlarini muntazam ravishda takomillashtirib borish mukammal huquq tizimini shakllantirishda hamda konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashda, qonuniylik va huquq tartibotni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухамедов Ў.Х.Ўзбекистон Республикасида қонунчиликни тизимлаштиришнинг назарий ва амалий муаммолари. Юрид.фанлар.док.дис..автореф.-Т.2010
2. Нажимов М.К.,Сайдуллаев Ш.А. Қонунчилик техникаси.- Т.:ТДЮИ.,2008
3. Файзиев Ш.Х.Қонун ҳужжатлари мониторинги. Huquq va bursh.Тошкент 2006
4. Одилқориев Х.,Мухамедов Ў. Қонунчилик жараёни кодекси: унинг зарурати, структураси ва мазмуни.//Давлат ва ҳуқуқ.2004.-№4

